



## O'SIMLIK DUNYOSI VA O'RMONLARNI MUHOFAZA QILISH HAMDA ULARDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

**Xudoyberdiyeva Zinat Xayrullo qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti Yurisprudensiya yo'nalishi  
2-bosqich talabasi Email: xudayberdiyevazinat@gmail.com  
Tel raqam: +998 50-222-02-98

**Abdumo'minov Muzaffar Jahongir o'g'li**

Toshkent davlat agrar universiteti Yurisprudensiya  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
Email: muzaffarabdumominov045@gmail.com  
Tel raqam: +998 998430064  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20389317>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 24-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 26-may 2026 yil

### KEYWORDS

*O'simlik dunyosi, o'rmon fondi, ekologik huquq, muhofaza qilish, tabiiy resurslar, ekologik nazorat.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni huquqiy tartibga solish masalalari tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida mazkur sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimi, davlat boshqaruvi va nazorat mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek, o'simlik dunyosining ekologik va iqtisodiy ahamiyati ochib berilib, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan.*

Tabiat insoniyat hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Insonning yashashi, sog'lom hayot kechirishi hamda iqtisodiy faoliyati ko'p jihatdan tabiiy resurslarga bog'liq. Tabiiy resurslar ichida o'simlik dunyosi va o'rmonlar alohida o'rin egallaydi. Chunki o'simliklar Yer yuzidagi ekologik muvozanatni saqlashda, atmosferani kislorod bilan boyitishda, tuproq unumdorligini oshirishda hamda turli hayvonlar uchun yashash muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'rmonlar esa tabiatning eng muhim ekologik tizimlaridan biri hisoblanadi. Ular iqlimni tartibga solish, suv resurslarini saqlash, havoni tozalash, tuproqni eroziyadan himoya qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, o'rmonlar iqtisodiyot uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lib, yog'och, dorivor o'simliklar, oziq-ovqat mahsulotlari hamda boshqa tabiiy boyliklar manbai hisoblanadi. Shunday ekan, o'rmonlardan va unga tegishli yerlardan samarali va oqilona foydalanish masalasi har qanday davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shu jihatdan, o'rmon fondi yerlaridan maqsadli foydalanish uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda sanoatning rivojlanishi, aholining ko'payishi hamda tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish natijasida o'simlik dunyosiga katta zarar yetmoqda. Ayrim o'simlik turlari yo'qolib ketish xavfi ostida qolmoqda. Shu sababli o'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solish muhim vazifa hisoblanadi.

O'simlik dunyosi insoniyat hayotida muhim o'rin tutadi. O'simliklar nafaqat ekologik tizimning ajralmas qismi, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning ham muhim omillaridan biridir.

**O'simliklarning ekologik ahamiyati quyidagilardan iborat:**

1. atmosferani kislorod bilan boyitadi;
2. karbonat angidrid gazini yutadi;
3. tuproq unumdorligini oshiradi;
4. tuproq eroziyasining oldini oladi;
5. biologik xilma-xillikni saqlaydi.
6. O'rmonlar esa ekologik barqarorlikni ta'minlashda juda muhim rol o'ynaydi.
7. Ular iqlimni yumshatadi, shamol tezligini kamaytiradi hamda suv manbalarini saqlashga yordam beradi.

**O'simliklarning iqtisodiy ahamiyati ham juda katta. Ular:**

1. oziq-ovqat mahsulotlari manbai;
2. dorivor vositalar tayyorlash uchun xomashyo;
3. qurilish materiallari manbai;
4. chorvachilik uchun yem-xashak manbai hisoblanadi.
5. Shuningdek, o'rmonlar turizm va rekreatsiya sohasining rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro o'rmon kunini nishonlash g'oyasi birinchi marta 1971-yilda Yevropa qishloq xo'jaligi konfederatsiyasining 23-Bosh assambleyasida paydo bo'lgan. Oradan bir yil o'tib, BMT huzuridagi Jahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) g'oyani qo'llab-quvvatladi. Xalqaro o'rmon kuni jamiyatni o'rmonlarni muhofaza qilish muhimligi haqida xabardor qilish uchun imkoniyat sifatida. Bu kunni har yili butun dunyo bo'ylab 21-mart – Janubiy yarimsharda kuzgi tengkunlik kuni va Shimoliy yarimsharda bahorgi tengkunlik kuni nishonlashga qaror qilindi va hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ham 21-mart «Xalqaro o'rmonlar» kuni sifatida nishonlanadi

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining 2025-yil 25-dekabr ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda o'rmonlar maydoni 4,7 mln gektarga yetdi. "O'zbekiston – 2030" Strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatda o'rmon maydonlarini ko'paytirish va degradatsiyaga uchragan hududlarni tiklash bo'yicha choralar izchil kengaytirilmoqda. O'rmon fondini rivojlantirish ekologik barqarorlikning, cho'llanishga qarshi kurashishning va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishning asosiy omillaridan biri sifatida, ayniqsa respublikaning zaif hududlarida ko'rib chiqilmoqda. Joriy yilda o'rmonlarni barpo etish va tiklash ishlari 150,7 ming gektar maydonni qamrab oldi. O'rmon-melioratsiya tadbirlarining asosiy hajmi Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'yi hududiga qaratildi, u yerda 145,2 ming gektar o'zlashtirildi. Eng katta maydonlar Mo'ynoq tumaniga to'g'ri keladi, u yerda 90,5 ming gektarda o'rmonzor barpo etilgan. Shuningdek, Buxoro viloyatining bir qator tumanlarida, Navoiy va Xorazm viloyatlari hududlarida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. Mamlakatning boshqa hududlarida yana 5,5 ming gektar o'rmon barpo etildi.

Shu bilan birga, ko'chatxonalarni rivojlantirish va o'rmon xo'jaligining moddiy bazasini mustahkamlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Ko'kalamzorlashtirishning barqaror sur'atlarini ta'minlash uchun 979 tonna daraxt va buta urug'lari tayyorlandi. Mamlakatdagi barcha o'rmon xo'jaliklarida 1300 gektar maydonda zamonaviy ko'chatxonalar tashkil etilib,

u yerda mahalliy tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan 123 million tup ko'chat va nihollar yetishtirilmoqda.

Yer degradatsiyasining oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Cho'l va tog'oldi hududlarida 1390 gektar maydonda himoya o'rmon chiziqlari yaratildi, bu tuproq eroziyasini va shamol ta'sirini kamaytiradi. Tog'li va adir hududlarda 41 gektarda o'rmonlar terraslash usuli bilan barpo etildi, bu esa nishablarni samarali mustahkamlash va tabiiy landshaftlarni saqlash imkonini beradi. Qo'shimcha yo'nalish sifatida dorivor va oziq-ovqat o'simliklari plantatsiyalarini rivojlantirish belgilandi: 5890 gektar maydonda 7918 tonna mahsulot yetishtirildi.

O'rmon fondidan foydalanish samaradorligini oshirish doirasida avval past samarali deb topilgan 4842 gektar yerlar o'zlashtirildi. Bundan tashqari, 1530 gektar o'rmon fondi uchastkalari onlayn-auksionlar orqali ijaraga berildi, bu esa xususiy investitsiyalarni jalb qilishga va o'rmon xo'jaligi sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Islotlarning muhim qismi ilg'or xorijiy tajribani joriy etish bo'ldi. Shu maqsadda Xitoy Xalq Respublikasidan 30 ming tup brussonetiya ko'chati olib kelindi, ularning asosida 100 gektar maydonda yangi eksperimental plantatsiyalar yaratildi. Arnasoy tumanida sho'rga chidamli o'simliklarning yangi galofit bog'ini yaratish ishlari boshlandi, buning uchun Xitoydan sho'rlangan yerlar uchun istiqbolli bo'lgan 35 turdagi galofit o'simliklarning 1315 kilogramm urug'i import qilindi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakat hududini qoplagan o'rmonlarning maydoni 4,7 million gektarga yetdi. Bu ko'rsatkichlar "O'zbekiston - 2030" Strategiyasi maqsadlarining izchil bajarilayotganini hamda ekotizimlarni tiklash, tabiiy resurslarni saqlash va atrof-muhit sifatini yaxshilash bo'yicha uzoq muddatli, ilmiy asoslangan siyosat shakllanayotganini yaqqol aks ettiradi.

Shunindek, Davlat o'rmon xo'jaligi organlari, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari doirasida o'rmonni undan foydalanish tartibi buzilishidan, shu jumladan o'rmonni qonunga xilof ravishda kesishlardan hamda o'rmonga boshqacha tarzda zararli ta'sir ko'rsatilishidan muhofaza qilinishini ta'minlaydi.

Davlat o'rmon xo'jaligi organlari, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rmonda yong'inning oldini olish, yong'inga qarshi kurashishga oid chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi, zarur hollarda yong'inni o'chirish uchun aholini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning o't o'chirish, yer qazish texnikasini hamda transport vositalarini jalb etadi, yong'in xavfi yuqori bo'lgan davrda aholining o'rmonda bo'lishini hamda o'rmonlarga transport vositalari va boshqa vositalar kirishini cheklaydi yoki taqiqlaydi.

O'rmondan foydalanuvchilar o'rmonlarda yong'in xavfsizligiga rioya etishi, ish joylarida yong'inga qarshi tadbirlar o'tkazishi, o'rmonlarda yong'inlar chiqqan taqdirda esa ularning o'chirilishini ta'minlashi shart<sup>1</sup>.

#### **O'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilishning huquqiy asoslari;**

O'zbekiston Respublikasida o'simlik dunyosini muhofaza qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu soha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Ular quyidagilardan iborat:

**I.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;**

**II. O'zbekiston Respublikasi qonunlari;**

1. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun
2. "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonun
3. "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun
4. "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonun
5. "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonun
6. "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonun
7. "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonun
8. "O'rmon to'g'risida"gi Qonun
9. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun
10. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun
11. "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonun

**III. Prezident qarorlari va farmonlari,**

1. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni

2. "Yashil makon" umummilliy loyhasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida PF Farmoni

<sup>1</sup> Qarang. O'zbekiston Respublikasi O'rmon to'g'risidagi qonuni 23-modda

3. "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF Farmoni

**IV. Hukumat qarorlari va farmoyishlari,**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2019 yildagi 5 sentyabrdagi VMQ-737-son qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jamoatchilik ekologiya nazoratchisi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2024 yildagi 24 fevraldagi VMQ-101-son qarori

3. Vazirlar Mahkamasining "Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish harakatlarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

**V. Ijro intizomiga doir hujjatlar,**

**VI. Tadbirkorlikka oid hujjatlar,**

**VII. Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan hujjatlar,**

Mazkur qonun hujjatlarida o'simlik dunyosini muhofaza qilish, ulardan foydalanish tartibi, davlat nazorati hamda javobgarlik masalalari belgilab qo'yilgan.

O'rmonlardan foydalanish umumiy yoki maxsus bo'lishi mumkin.

O'rmonlardan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan bepul va o'z ehtiyojlari uchun belgilangan hajmlarda amalga oshiriladi. O'rmondan maxsus foydalanish uchun haq to'lanadi. To'lovlar miqdori va ularni undirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30-sentabrdagi 278-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'rmondan foydalanganlik uchun to'lovlar miqdorini va ularni undirishni tartibga solish to'g'risida"gi nizom talablariga ko'ra, haq to'lash tartibi quyidagi tartibda belgilangan:

O'rmondan foydalanishning bir kalendar yilgacha bo'lgan muddat uchun – o'rmondan foydalanish boshlanguniga qadar 100% miqdorida;

O'rmondan foydalanishning bir yildan ortiq bo'lgan muddati uchun har bir kalendar yilning yanvar oyida yoki foydalanish mavsumi boshlanishida joriy kalendar yil uchun 100% miqdorida<sup>2</sup>.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 600 mingdan ortiq o'simlik turlari mavjud. O'zbekiston hududida esa taxminan 4500 ga yaqin o'simlik turi uchraydi. Ularning muhim qismi noyob va endemik hisoblanadi.

**O'simlik dunyosi obyektlariga quyidagilar kiradi:**

1.yovvoyi holda o'sadigan o'simliklar;

<sup>2</sup>Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi,08.02.2022-y., 09/22/62/0111-son.

2.ularning urug'lari va mevalari;

3.dorivor o'simliklar;

4.botanika kolleksiyalari;

5.o'simliklarning yashash faoliyati mahsulotlari.

O'simlik dunyosi obyektlari davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Ayrim noyob o'simlik turlari maxsus muhofaza ostiga olinadi va ular Qizil kitobga kiritiladi.

Qizil kitobga kiritilgan o'simliklarni yig'ish, yo'q qilish yoki ularga zarar yetkazish qonun bilan taqiqlanadi.

O'rmon fondi va uning tarkibi; **Davlat o'rmon fondi** — bu davlat tasarrufidagi barcha o'rmon maydonlarining yig'indisidir. O'rmon fondiga quyidagilar kiradi:

- tabiiy o'rmonlar;
- sun'iy barpo etilgan o'rmonlar;
- ihota o'rmonlari;
- tog' o'rmonlari;
- cho'l hududlaridagi o'rmonlar.

Biroq quyidagi hududlardagi daraxtlar o'rmon fondiga kirmaydi:

- qishloq xo'jaligi yerlaridagi daraxtlar;
- shahar ko'kalamzorlari;
- yo'l bo'ylaridagi daraxtlar;
- aholi tomorqalaridagi daraxtlar.

O'simlik dunyosi va o'rmonlardan foydalanish turlari

O'simlik dunyosidan foydalanish ikki turga bo'linadi: 1)**Umumiy foydalanish**,

Umumiy foydalanish fuqarolar tomonidan bepul amalga oshiriladi. Masalan:

dorivor o'simliklarni yig'ish,oziq-ovqat uchun yovvoyi o'simliklarni yig'ish,

dam olish va sayr qilish. 2)**Maxsus foydalanish**,Maxsus foydalanish ruxsatnoma asosida

amalga oshiriladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:daraxtlarni kesish,chorvachilik uchun yem-xashak tayyorlash,ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;

o'rmon resurslaridan tijorat maqsadida foydalanish.

**Davlat boshqaruvi va nazorati**

O'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi bir nechta organlar tomonidan amalga oshiriladi.Ular:**Vazirlar Mahkamasi,Ekologiya organlari,O'rmon xo'jaligi organlari,mahalliy hokimiyat organlari,**

Nazorat quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- ✓ **davlat nazorati**
- ✓ **idoraviy nazorat**
- ✓ **jamoatchilik nazorati**

Davlat nazorati ekologiya inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi. O'simlik dunyosini muhofaza qilishda javobgarlik, O'simlik dunyosiga zarar yetkazgan shaxslar qonun asosida javobgarlikka tortiladi. Javobgarlik turlari: **1.ma'muriy javobgarlik , 2.fuqarolik-huquqiy javobgarlik ,3.jinoiy javobgarlik**

**Masalan**, noqonuniy daraxt kesish, noyob o'simliklarni yo'q qilish yoki o'rmonlarga zarar yetkazish uchun jarima yoki jinoiy javobgarlik belgilanishi mumkin.

#### **Xorijiy davlatlar tajribasi;**

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish masalasi faqat ekologik yo'nalish emas, balki huquqiy, iqtisodiy va institutsional mexanizmlar bilan chambarchas bog'liq holda samarali amalga oshiriladi. Shu jihatdan rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQSHda o'rmonlar va tabiiy hududlarni muhofaza qilish milliy parklar tizimi orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizimda har bir hudud alohida muhofaza rejimiga ega bo'lib, inson faoliyati qat'iy tartibga solinadi. Eng muhim jihatlardan biri shundaki, bu tizim nafaqat muhofazani ta'minlaydi, balki turizm orqali iqtisodiy foyda ham keltiradi.

Germaniyada esa o'rmonlarni boshqarish tizimi yuqori darajada institutsionallashtirilgan bo'lib, u yerda "barqaror o'rmon xo'jaligi" prinsipi ustuvor hisoblanadi. Ya'ni, kesilgan daraxt o'rniga albatta yangisi ekilishi majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari, o'rmonlarning katta qismi ekologik sertifikatlash tizimi asosida boshqariladi, bu esa ularning ekologik talablar asosida saqlanishini ta'minlaydi.

Yaponiya tajribasida esa o'rmonlarni tiklash va kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu davlatda tabiiy resurslar cheklangan bo'lishiga qaramasdan, zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar asosida o'rmonlarni qayta tiklash ishlari samarali yo'lga qo'yilgan.

Mazkur tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'rmonlarni muhofaza qilishda faqatgina qonunchilik emas, balki uning amaliy ijrosi, monitoring tizimi va jamoatchilik ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega.

#### **Muammolar va takliflar;**

Hozirgi kunda o'simlik dunyosi va o'rmonlarni muhofaza qilish sohasida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular ushbu sohaning samarali rivojlanishiga to'siqlik qilmoqda.

Birinchidan, noqonuniy daraxt kesish holatlari hanuzgacha uchrab turibdi. Bu esa o'rmon fondining qisqarishiga va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Mazkur muammoning asosiy sababi sifatida nazorat tizimining yetarli darajada samarali emasligi va ayrim hududlarda jamoatchilik nazoratining sustligi ko'rsatish mumkin.

Ikkinchidan, o'rmonlarning kamayib borishi bilan bog'liq muammo mavjud. Ayniqsa, cho'l va yarim cho'l hududlarda bu holat yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu esa iqlim o'zgarishi, shamol eroziyasi va cho'llanish jarayonlarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, ayrim o'simlik turlarining yo'qolib ketish xavfi ortib bormoqda. Bu holat biologik xilma-xillikning kamayishiga olib keladi va ekologik tizimning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, aholining ekologik madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ko'plab fuqarolar o'simlik dunyosini muhofaza qilishning ahamiyatini yetarli darajada anglab yetmaydi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

**Birinchidan**, o'rmon fondi ustidan nazoratni kuchaytirish zarur. Xususan, zamonaviy texnologiyalar asosida raqamli monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Ikkinchidan**, noqonuniy daraxt kesish va o'simliklarga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirish lozim.

**Uchinchidan**, o'rmonlarni ko'paytirish va tiklash bo'yicha davlat dasturlarini kengaytirish, ayniqsa ekologik jihatdan zaif hududlarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

**To'rtinchidan**, ekologik ta'lim va targ'ibotni kuchaytirish orqali aholining ekologik ongini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda o'rmonlardan foydalanishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

**Xulosa**, Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, o'simlik dunyosi va o'rmonlar ekologik barqarorlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ularni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega.

Shu munosabat bilan, mazkur sohada amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, fuqarolarning ekologik madaniyatini oshirish va ularning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat shu holatda o'simlik dunyosini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 1992.
3. <https://lex.uz/acts/-107115>
4. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonuni, 2018. <https://lex.uz/docs/-3683529>
5. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi rasmiy sayti <https://gov.uz/oz/eco>
6. Ekologiya huquqi: darslik – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025.198 bet.
7. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2013.
8. O'zbekiston Respublikasi "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2016.